

# **BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**

*2021- yil 1- mart holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

**30 694**

121,5 %



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

**28 935**

119,0 %



### Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)


**1 226**

135,9 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bora-sida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- fevral oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar- fevral oylarida, birlikda)




# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar



(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **37,2** foizga oshdi



■ Dehqonchilik,  
chovachilik, ovchilik va bu  
sohalarda xizmat ko'rsatish  
■ O'rmon xo'jaligi  
■ Baliq xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxonasi va  
tashkilotlarning  
umumiyligi o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan **26,0** foizga  
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 4 590 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,0 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 126,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 95,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 111,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 100,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 160,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,5** foizga oshdi



## Kichik tadbirdorlik subyektlari soni



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

**651**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

**20**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

**12**



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



**378**

yashash bo'yicha xizmatlar



**1 919**


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 297 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,5 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 125,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,6 %), yashash bo'yicha xizmatlarning- 104,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,5 %) o'sishidir.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- mart holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra 3 241 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 208 taga yoki 159,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 011 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 112 taga yoki 158,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 225 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 111 taga yoki 197,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra 309 tani tashkil etib, ulardan 303 tasi yoki 98,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 22 taga yoki 106,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- fevral oylarida viloyatimizda 11 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- fevral oylarida, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

|  | 2017- yil | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|--|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Jami   | 83        | 94        | 182       | 281       | 303       |
| shu jumladan:                                      |           |           |           |           |           |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | 1         | 2         | 17        | 20        | 30        |
| Sanoat   | 61        | 61        | 88        | 119       | 119       |
| Qurilish   | 2         | 4         | 10        | 31        | 30        |
| Savdo  | 9         | 12        | 33        | 55        | 68        |
| Tashish va saqlash                                 | 2         | 0         | 2         | 5         | 5         |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 6         | 6         | 13        | 20        | 23        |
| Axborot va aloqa                                   | 0         | 1         | 0         | 1         | 1         |
| Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1         | 1         | 3         | 6         | 6         |
| Boshqa turlar                                      | 1         | 7         | 16        | 24        | 21        |

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


15

|                         | Jami       | <i>shundan:</i> |                 |
|-------------------------|------------|-----------------|-----------------|
|                         |            | qo'shma korxona | xorijiy korxona |
| <b>Viloyat bo'yicha</b> | <b>303</b> | <b>150</b>      | <b>153</b>      |
| <b>Buxoro shahar</b>    | <b>156</b> | <b>68</b>       | <b>88</b>       |
| <b>Kogon shahar</b>     | <b>14</b>  | <b>10</b>       | <b>4</b>        |
| <b>tumanlar:</b>        |            |                 |                 |
| <b>Olot</b>             | <b>7</b>   | <b>-</b>        | <b>7</b>        |
| <b>Buxoro</b>           | <b>13</b>  | <b>10</b>       | <b>3</b>        |
| <b>Vobkent</b>          | <b>5</b>   | <b>3</b>        | <b>2</b>        |
| <b>G'ijduvon</b>        | <b>11</b>  | <b>7</b>        | <b>4</b>        |
| <b>Kogon</b>            | <b>26</b>  | <b>18</b>       | <b>8</b>        |
| <b>Qorako'l</b>         | <b>7</b>   | <b>3</b>        | <b>4</b>        |
| <b>Qorovulbozor</b>     | <b>10</b>  | <b>4</b>        | <b>6</b>        |
| <b>Peshku</b>           | <b>19</b>  | <b>8</b>        | <b>11</b>       |
| <b>Romitan</b>          | <b>12</b>  | <b>5</b>        | <b>7</b>        |
| <b>Jondor</b>           | <b>14</b>  | <b>9</b>        | <b>5</b>        |
| <b>Shofirkon</b>        | <b>9</b>   | <b>5</b>        | <b>4</b>        |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 156 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 51,5 %), Kogon tumani 26 ta (8,6 %), Peshku tumani 19 tani (6,3 %), Kogon shahar 14 ta (4,6 %), Buxoro tumani 13 ta (4,3 %), hamda Jondor tumanlarida 14 tani (4,6 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

16



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

17




2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (31,0 %), G'ijduvon(11,4 %), Romitan(8,7%), Buxoro (8,2 %), Jondor (6,8 %), Peshku (6,6 %), Shofirkon(6,3 %), Kogon (5,7 %), Qorako'l (5,6 %), Vobkent (5,3 %), Kogon shahar (4,4 %), Olot (3,7 %), Qorovulbozor (2,4 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar- fevral oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar- fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (25,8 %), G'ijduvon (10,0 %), Buxoro (8,7 %), Romitan (10,0 %), Peshku (8,2 %), Kogon (5,7 %), Jondor (8,0 %), Vobkent (5,2 %), Shofirkon (6,2 %), Qorako'l (4,6 %), Olot (5,7 %), Qorovulbozor (2,1 %) tumanlari va Kogon shahar (2,9 %), ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni (2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


18



2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (30,0 %), G'ijduvon(10,5%), Romitan (8,7 %), Buxoro (8,0 %), Jondor (6,6 %), Peshku (6,0 %), Shofirkon (5,7 %), Kogon (5,4 %), Vobkent (5,0 %), Qorako'l (4,7 %), Kogon shahar (4,1 %), Olot (3,1 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar- fevral oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar lists "RASMIY STATISTIKA" categories such as E'on qilish taqimi, Metama'lumotlar, Makroko'satkichilar, Milliy hisobiar, Narx va indekslar, Investitsiyalar, Qurilish, and Tashqi iqtisodiy faoliyat. The central search interface has a dropdown menu showing "Statistik klassifikatsiyalar" selected, along with other options like Xizmatlar ro'yxati, Elektron hisobot, KTYaDR ma'lumotlari, Usulby materiallar, Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati, and Korxona pasporti. The right sidebar lists "FOYDALI MA'LUMOTLAR" such as Aholini ro'yxtagiga olish-2022, Harakatlar strategiyasi, Press-relezzlar, Choraklik natijalar, Nashrlar – statistika haqida, Usulby materiallar, and Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Buxoro viloyati**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: (65) 223-83-20**